

IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA VA INNOVATSIYANI TUTGAN O'RNI

Dilorom Tajiboyeva,

Toshkent moliya institute “Iqtisodiyot” kafedrasи professori, i.f.d

E-mail: dtojiboeva@mail.ru

Gadoyev Bahrom Bahodir o‘g‘li,

Toshkent moliya instituti magistri

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada bugungi kunning rivojlanishi uchun hamda taraqqiy topishida investitsiya va innovatsiyalarning nechog‘lik muhim ahamiyatga ega ekanligi hamda innovatsion loyihalarni moliyalashtirishdagi imtiyozlar haqida keltirib o‘tilgan .

Kalit so‘zlar: **investitsiya**, innovatsiya, modernizatsiya, infratuzilma, kredit, bank, foiz , resurs, kashfiyat, moliyalashtirish.

THE ROLE OF INVESTMENT AND INNOVATION IN ECONOMIC DEVELOPMENT

ABSTRACT

This article discusses the importance of investment and innovation for the development of the present day and its development, as well as the benefits of financing innovative projects.

Key words: investment, innovation, modernization, infrastructure, credit, bank, percent, resource, discovery, financing.

Kirish

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida investitsiya va innovatsiya faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir mamlakatning rivojlanish darajasi, ya’ni iqtisodiyotning rivojlanishi va iqtisodiy o’sishi ko‘p jihatdan mamlakatdagi investitsion jarayonlarga bog‘liq. Har qanday jamiyatning barqaror iqtisodiy rivojlanishini investitsiya va innovatsiyasiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Ayniqsa, bugungi kunda bu narsa yaqqol namoyon bo‘lmoqdaki, har qanday mamlakatning bundan keying yuksalishi xorijiy investitsiyalarni jalb etish holatiga bog‘liq.

Mamlakatimiz iqtisodiyotiga olib borilayotgan tarkibiy o‘zgarishlarning asosiy vositalaridan biri bo‘lib, iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etish hamda mamlakat mintaqalarning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish davlat siyosati hisoblanadi. Ushbu investitsiya siyosatini shakllantirishda maqsadlar hamda ustuvor yo‘nalishlarni belgilash, strategiya va dasturlarni ishlab chiqish shu bilan bir qatorda qulay investitsiya muhitini yaratish chora-tadbirlarini nazarda tutadi. Shu o‘rinda aytib o‘tish joizki xorijiy investitsiyalar xalqaro globallashuv va iqtisodiy integratsiya jarayonining asosiy vositasi bo‘lgani sababli erkin bozor iqtisodiyotining global raqobatida xorijiy investitsiyalarni jalb etishni faollashtirish obyektiv zaruriyat hisoblanadi. Milliy iqtisodiyotdagi moliyaviy resurslar taqchilligini qoplash maqsadida xorijiy kapitallar oqimini jalb etish uchun qulay investitsiya muhiti zarur. Investitsiya muhiti xorijiy investorlarga ishlab chiqarishga sarmoya kiritish, o‘z faoliyatlarini kengaytirish uchun imkoniyat va rag‘batlar yaratadigan bir qator omillar majmui bilan belgilanadi.

2021 yil yakuniga ko‘ra, o‘zlashtirilgan xorijiy investitsiyalar hajmi 11,1 mlrd dollarni tashkil etib, yillik prognozga nisbatan 113 foizga bajarilgan. Shu jumladan, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar 9,8 mlrd dollarga yetgan.

Jumladan, o‘zlashtirilgan investitsiyalarning umumiyligi hajmi 254 trln. so‘mni tashkil etib, 2020 yilga nisbatan 109 foizga o‘sdi, shundan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar 8,6 mlrd dollarni tashkil qildi.

Hisobot davrida davlat Investitsiya dasturi doirasida umumiy qiymati 5,9 milliard dollarlik 318ta yirik investitsiyaviy loyiha, hududiy investitsiya dasturlari doirasida esa 7,4 milliard dollarlik 15 710 investitsiyaviy loyiha amalga oshirildi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Mavzuga oid adabiyotlarni tahlil etish jarayonida hududlarning investitsion jozibadorligi tahlil qilish yuzasidan bir qancha yetakchi iqtisodchi olim va mutaxassislar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borgan bo‘lib, Jumladan, Endryu Xargadon va boshqa olimlar tomonidan «Investitsiya» atamasi lotin tilidagi «invest» so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib «qo‘yish», «mablag‘ni safarbar etish», «capital qo‘yilmasi» ma’nosini beradi. Keng ma’noda investitsiya mablag‘ni ko‘paytirib va qaytarib olish maqsadida kapitalni safarbar etishni bildiradi.

Ko‘rinib turibdiki, mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida “Iqtisodiyotda boshqaruva tizimi eskirgani, innovatsion g‘oyalarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha samarali mexanizmlar o‘z vaqtida joriy qilinmagani ham jiddiy muammo bo‘lib qolmoqda. Shuningdek, texnologik qoloqlik, resurs va energiyani tejaydigan texnologiyalar, muqobil energiya manbalarini tatbiq etishning sustligi ham iqtisodiy taraqqiyot yo‘lida to‘siq bo‘lmoqda”³, deya ta’kidlab o‘tgan.

“Investitsiya muhiti” bu xususida iqtisodchi-olimlardan D.G‘ozibekov va T.Qoraliyevlar tomonidan quyidagi fikrlar bildirilgan: “Investitsiya iqlimi juda keng ma’noda ishlatiladigan tushuncha bo‘lib, investor tomonidan hisobga olinadigan barcha muammo va masalalarni mujassamlashtiradi. Investor tomonidan ma’lum bir mamlakatga kapital ajratishning qulay va noqulay tomonlari belgilanadi, shu bilan bir qatorda, o‘z kapitalini kiritmoqchi bo‘lgan mamlakat mafkurasi, siyosati, iqtisodiyoti va madaniyatiga katta ahamiyat beriladi”

Tadqiqot metodologiyasi. Hududlarining innovatsion va investitsion jozibadorligi va uni oshirish bo‘yicha ma’lumotlar to’plash, to’plangan ma’lumotlarni tahlil qilish, sintezlash, mantiqiy fikrlash kabi iqtisodiy tadqiqot usullaridan keng foydalanildi.

³ O‘zbekiston respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018 yil 28 dekabrdagi Oliy Majlisga Murojatnomasi.

Tahlil va natijalar. Iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida innovatsion-investitsion faoliyatning ustuvor yo‘nalishlari sifatida quyidagilarni ko‘rishimiz mumkin:

- korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashni yanada jadallashtirish, zamonaviy, moslashuvchan texnologiyalarni keng joriy etish;
- eksportga mahsulot chiqaradigan korxonalarining tashqi bozorlarda raqobatdosh bo‘lishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish va eksportni rag‘batlantirish uchun qo‘srimcha omillar yaratish;
- ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini kamaytirishni rag‘batlantirish hisobidan real sektor korxonalarining raqobatdoshligini oshirish;
- elektroenergetika tizimini modernizatsiya qilish, energiya iste’molini kamaytirish va energiya tejashning samarali tizimini joriy etish choralarini amalga oshirish;
- ichki bozorda talabni rag‘batlantirish orqali mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash.

Lekin mamlakatda innovatsiya faoliyatining tashkil etilishi va rivojlanishi uchun quyidagi shartlarning mavjud bo‘lishi va bajarilishi talab etiladi⁴:


- davlat innovatsiya siyosati – O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyyati organlari tomonidan mamlakatning innovatsion strategiyasi maqsadlari va ustuvor innovatsion dasturlar va loyihalarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining ishlab chiqilishi va belgilanishi;
- investitsiya salohiyati – davlat, tarmoq, korxona va tashkilotning turli ko‘rinishdagi resurslar yig‘indisi (moddiy, moliyaviy, intellektual, ilmiy-texnikaviy, iqtisodiy va boshqalarni qamrab olgan holda);

⁴ Эндрю Харгадон «Управление инновациями. Опыт ведущих компаний» Учебник -М.: ООО «И.Д.Вильяма». 2007 – год

— innovatsiya sohasi – innovatsiyalarni yaratish va tarqatishni o‘z ichiga qamrab oluvchi innovatsiya mahsulot (ish, xizmat)larini ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilarning faoliyat sohalari;

— innovatsiya infratuzilmasi – innovatsiya faoliyatining amalga oshirilishiga imkon beruvchi, ta’sir ko‘rsatuvchi turli muassasalar;

Hozirgi kunda investitsiyalarni innovatsion loyihalarni moliyalashtirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Shuning uchun bank tomonidan investitsion loyihalarni moliyalashtirishga bir qancha imtiyozli shartlar qo‘yilgan(1-chizma).



1-chizma. Bank tomonidan investitsion loyihalarni moliyalashtirish⁵

⁵ Yo’ldoshev N.Q. va boshqalar. «Innovatsion menejment». Darslik. TDIU. 2011 y. — 312 b

Respublika bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarni mulkchilik shakllari bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, 2020-yilda 22,5 foiz davlat mulki asosida 77,5 foiz nodavlat mulki asosida 2013-yilga nisbatan o'sish dinamikasiga qarasak davlat mulki ulushi 8,7 foizga oshga nodavlat mulk shakli ulushi 2,3 foizga kamaygan.

1-jadval

O'zbekiston Respublikasida mulkchilik shakllari buyicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar (foizda)⁶

№	Ko'rsat kichlar	Yillar								O'zgarish yilga nisbatan o'zgarish	2020yil 2013 %da
		2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020		
1	jami	100	100	100	100	100	100	100	100		
	shundan										
1.1	davlat	20,7	19,1	16,3	16,1	14	18,6	21,7	22,5	1,8	108,7
1.2	nodavlat	79,9	80,9	83,7	83,9	86	81,4	78,3	77,5	-1,8	97,7

Shuningdek, tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari hisobidan 28,5 trln so'mni tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 0,3%ga kamaygan, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar 22,4 trln so'm, kafolatlanmagan va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar 35,4 trln so'm, Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi 1,8 trln so'm, Respublika budjeti 13,1trln so'm va suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi tomonidan 1,9 trln so'm miqdorida asosiy kapitalga inestitsiyalar o'zlashtirildi. Respublikamizda xorijiy investitsiya va kreditlarning 2020-yilda yuqori o'sishini Jizzax va Sirdaryo viloyatlari (7,4 marta), Samarqand viloyati (5,5 marta), Xorazm viloyati (5,9 marta) kabi viloyatlarda ular hajmining salmoqli darajada oshganligi bilan izohlash mumkin.

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida korxona va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar – 51 911,3 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 25,7 % ini tashkil etdi.

⁶ www.stat.uz

Aholi mablag‘lari hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 8,9 % i yoki 18 077,8 mlrd. so‘mi o‘zlashtirildi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hisobidan o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 28 740,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2019 yilning mos davriga nisbatan 5,3 % punktga kamayib, 14,2 % ni tashkil etdi..

2-jadval

Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar (mlrd.so‘m)⁷

Hududlar	22010	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021*
O‘zbekiston Respublikasi	16463,7	44810,4	51232,0	72155,2	124231,3	195927,3	210195,1	244962,6
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	496,4	6021,2	3778,3	2822,0	6757,8	8750,6	7089,8	7879,1
Andijon	726,2	1956,5	2188,5	2986,0	4711,9	7452,1	9622,6	12143,7
Buxoro	2147,2	4075,9	5922,9	11613,4	9610,9	10366,6	12183,9	18995,6
Jizzax	440,8	1304,9	1449,7	1788,2	3606,3	7900,9	12545,4	13224,4
Qashqdaryo	1792,8	5894,7	7304,4	11175,3	16518,5	24462,5	20557,6	16225,1
Navoiy	1741,8	1809,1	2963,2	3977,9	10579,5	17646,3	15688,4	16309,1
Namangan	660,6	2227,5	2824,5	3586,7	8158,1	12084,9	12007,2	13302,4
Samarqand	1083,1	3237,2	3623,5	4384,2	7061,4	10266,7	14656,4	17722,8
Surxondaryo	655,3	1843,6	2142,4	3551,0	7240,6	11835,1	10068,2	11326,5
Sirdaryo	406,2	1083,3	1322,9	1628,0	2699,3	5869,1	7191,9	8708,0
Toshkent	1606,1	4428,1	4238,7	5938,4	11226,9	20353,9	21148,6	27822,4
Farg‘ona	930,9	2542,3	2643,6	2954,5	5539,1	8685,4	11040,0	12920,6
Xorazm	416,9	1531,5	1560,5	2175,9	3013,8	5032,0	5391,8	8580,3
Toshkent sh.	3309,0	6854,6	9268,9	13573,7	26435,7	42458,1	50371,3	57611,3

Manba:www.stat.uz O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi rasmiy axborot xati sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

⁷ Manba: www.stat.uz. Muallif tomonidan shakllantirildi.

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida investitsion faollikni pasaygani kuzatilib, asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmini o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 91,8 % ni tashkil etdi.

2020- yilning yanvar-dekabr oylarida 202,0 trln. so‘m asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirilib, ularning 65,4 % i yoki 132,0 trln. so‘mi jalb etilgan mablag‘lar hisobidan moliyalashtirilgan bo‘lsa, korxona, tashkilot va aholining o‘z mablag‘lari hisobidan 34,6 % yoki 70,0 trln. so‘m moliyalashtirildi.

Jami investitsiyalar hajmida, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi, 2020- yilning mos davridagi ulushiga nibatan 8,0 % punktga kamayib, 19,5 % ni yoki 39 310,2 mlrd. so‘nni tashkil etdi.

Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 162 289,9 mlrd. so‘m yoki jami investitsiyalarning 80,5 % investitsiyalari o‘zlashtirilib, o‘tgan yilning mos davridagi ko‘rsatkichga nisbatan 8,0 % punktga ko‘paydi.



1-rasm. 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida O‘zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga investitsiyalar⁸

Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2021-yilda O‘zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga investitsiyalar holati:

⁸ www.stat.uz

Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan jami investitsiyalar – 245 trln. so‘m
 Markazlashgan investitsiyalar – 44,8 trln. so‘m
 Markazlashmagan investitsiyalar – 200,2 trln. so‘m
 Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlar – 104,5 trln. so‘m
 O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar – 17,3 trln. so‘m
 To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya va kreditlar – 87,2 trln. so‘m

Strategik rivojlanish agentligi rahbari o‘rinbosari Aleksey Sim «Iqtisodiy sharh» nashriga bergen intervyusida 2021 yilda O‘zbekistonga eng ko‘p investitsiya kiritgan davlatlar beshligini sanab o‘tdi.

Uning ma’lum qilishicha, bugungi kunda O‘zbekiston iqtisodiyotiga 50 dan ortiq davlat investitsiya kiritmoqda. Asosiy investor davlatlar beshligiga esa quyidagilar kiradi:

1. Xitoy — 2,2 mlrd dollar;
2. Rossiya — 2,1 mlrd dollar;
3. Turkiya — 1,18 mlrd dollar;
4. Germaniya — 800,7 mln dollar;
5. Janubiy Koreya — 137,4 mln dollar.

Ko‘plab investitsiyalarning asosiy hajmi energetika sektori, metallurgiya, kimyo sanoati, elektrotexnika mahsulotlari ishlab chiqarish, IT-texnologiyalari, qurilish, farmatsevtika, yengil sanoat, qishloq xo‘jaligi va boshqa sohalarga to‘g‘ri kelgan.

“O‘zbekiston Respublikasining 2025 yilgacha investitsiya siyosati strategiyasi” O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi tomonidan xalqaro tajriba, respublika iqtisodiyoti, uning tarmoqlari va hududlari investitsiya jarayonlari rivojlanishidagi tendensiyalar va muammolar tahlili asosida tayyorlangan.

2025 yilgacha investitsiya siyosatining maqsadi iqtisodiyotning raqobatbardoshligi va muvozanatini oshirish, ishlab chiqarish va eksport salohiyatini rivojlantirish, hududlarni rivojlantirish va aholi farovonligini oshirish hisoblanadi. Strategiyaning asosiy vazifalari uchta asosiy yo‘nalish bo‘yicha: investitsiya muhitini yaxshilash, ichki investitsiya manbalarini kengaytirish va investitsiya manbalarining

samaradorligini oshirish, samarali chora-tadbirlarni amalga oshirish va xorijiy investitsiyalarni jalg qilishning yangi yondashuvlarini ishlab chiqish aniqlangan.



2-rasm. Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar(trln.so‘m)⁹

Strategiyaning asosiy vazifalari uchta asosiy yo‘nalish bo‘yicha: investitsiya muhitini yaxshilash, ichki investitsiya manbalarini kengaytirish va investitsiya manbalarining samaradorligini oshirish, samarali chora-tadbirlarni amalga oshirish va xorijiy investitsiyalarni jalg qilishning yangi yondashuvlarini ishlab chiqish aniqlangan.

2025 yilgacha investitsiyalarning asosiy manbalari to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar, shu jumladan davlat-xususiy sheriklik, davlat investitsiyalari va korporativ qimmatli qog‘ozlar sarmoyalari bo‘ladi. 2019-2025 yillarda amalga oshirilayotgan hamda istiqbolli yangi investitsiya loyihalari doirasida 1002,5 milliard so‘mdan ortiq markazlashtirilmagan investitsiyalarni o‘zlashtirishi ko‘zda tutimoqda.

⁹ www.stat.uz

Shuningdek, yaqin 30 foizi korxonalarning o‘z mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladi.

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2018 yildagi 30,5 foizdan 2025 yilda 37,5 foizga o‘sishi kutilmoqda. Shuningdek, 2025 yilda jalb qilingan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar miqdori 11 milliard AQSh dollarga yetkaziladi, bu ko‘rsatkich 2018 yilda 1,6 milliard AQSh dollarni tashkil qilgan.

Investitsion siyosat strategiyasining amalga oshirilishining natijasi respublikaning hududiy va sanoat rivojlanishini har tomonlama ta’minlash, shuningdek mahsulotlarning xomashyodan tayyor mahsulotgacha bo‘lgan qiymat zanjirlarini shakllantirish, mavjudlarini mustahkamlash va yangi hududlararo va tarmoqlararo aloqalarni shakllantirish, sohalar, hududlar, davlat organlari va xususiy biznes o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish bo‘ladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, investitsiya va innovatsion loyihamonini amalga oshirish orqali iqtisodiyotda tub o‘zgarishlarni amalga oshirish imkonini beradi va bu iqtisodiyotda yangi ish o‘rinlarini tashkil etish va rivojlanish garovi bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasida innovatsion iqtisodiyotni shakillantirish va yanada rivojlantirish asosiy maqsadlardan va vazifalardan biri bo‘lib kelmoqda. Buning uchun biz:

- rivojlangan mamlakatlardagi biz uchun kerak bo‘lgan barcha texnologik bilim va yangiliklarni o‘rganish, va respublika iqtisodiyoti tarmoqlariga bosqichma-bosqich milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda tatbiq qilish;
- asosiy ahamiyatga ega bo‘lgan ichki innovatsion loyihalarga investorlarni hamda xorijiy kapitalni jalb qilish;
- texnologik innovatsiyalarga bag‘ishlangan bilimlar bazasini tashkil qilish va unda internet portal orqali barcha fuqarolar foydalana olishlariga erishish;

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoyitida Yurtimizga zamонавиу texnologiyalar olib kelib, sanoat ishlab chiqarishini yangilash va modernizatsiyalash

jarayonlarini olib borishni investitsiya faoliyatiziz tasavvur etib bo‘lmaydi. Bu muammolarni hal etish uchun quyidagi islohotlarni faollashtirish zarur:

- xorijiy investitsiyani jalb etuvchi korxonalarining tashqi bozorga chiqishda yetarli bilim va tajribaga ega emasligi, xalqaro bozordagi mavqeining pastligi;
- investitsiya jarayonida ishtirokchi tomonlarning o‘zaro bir-birlari to‘g‘risida yetarli ma’lumotga ega emasligi yoki bu ma’lumotlarning doimo ham to‘liq va ishonchli bo‘lavermaydi;
- xalqaro maydonda respublika hududlarinig investitsion muhit va hudud iqtisodiyotining yetakchi tarmoq, kompaniya va tashkilotlarining investitsion imkoniyatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni keng targ‘ib etish, tahlil qilish, baholash va tasdiqlash kabi tadbirlarni kuchaytirish;
- hududlarda xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini oshirish bo‘yicha dasturlar ishlab chiqish va boshqalar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2018 yil 28 dekabrdagi Oliy Majlisga Murojatnomasi. <http://uza.uz>.
2. Эндрю Харгадон «Управление инновациями. Опыт ведущих компаний» Учебник -М.: ООО «И.Д.Вильяма». 2007-год
3. FozilchayevSh.Q., XidirovN.G‘. Investitsiya va lizing asoslari. O‘quv qo‘llanma. – Т.: Moliya, 2017 yil.
4. Yo‘ldoshev N.Q. va boshqalar. «Innovatsion menejment». Darslik. TDIU. 2011-yil.
5. Ayupov R.X , Boltaboyeva. G.R, “O‘zbekistonda innovatsion iqtisodiyotini shakllantirish muammolari va yechimlari” TMI 2013-yil
6. G‘ozibekov D.G‘., Nosirov E.I. O‘zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish. Risola. – Т.: «Iqtisod-moliya», 2007
7. Fozilchayev.Sh.Q., Xidirov.N.G‘. “Investitsiya va lizing asoslari”. O‘quv qo‘llanma. – Т.: Moliya, 2017-yil.

Internet saytlari:

1. www.lex.uz (O‘zbekiston qonun hujatlari ma’lumotlari milliy ba’zasi rasmiy sayti);
2. www.stat.uz (O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistikasi Qo‘mitasi rasmiy veb sayti);
3. www.tfi.uz (O‘zbekiston Respublikasi Moliya institute);